



# JAMOAT SALOMATLIGI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ijtimoiy-tibbiy gazetasi

fjsti.uz  
@ferghana\_medical\_institute  
@farjsti

30-  
sentyabr  
2022-yil  
juma

№9 (13)



Suratda davolash fakulteti 1-bosqich talabarlari aks ettirilgan.

Xushxabar

## INSTITUT BINOSI – YANGI QIYOFADA

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining yangi o'quv binosi tantanali ravishda foydalanishga topshirildi. Mamlakatimizda ko'p yillardan beri mana shunday ko'rkam oliygohga ehtiyoj bor edi. Bugun ana shu orzu amalga oshdi.

Batafsil keyingi sahifalarda tanishing.

## XORIJLIK TALABALAR NEGA O'ZBEKISTONNI TANLASHDI?



**Men bu yurtni yoshlar uchun imkoniyatlar Vatani deb bilaman, —**  
deydi Naveena Nagavajan.

**So'nggi yillarda O'zbekiston nafaqat ko'p millatli fuqarolar yashaydigan mamlakatga, balki ko'plab xorijlik yoshlar ta'lim oladigan maskanga aylanib bormoqda.**

So'nggi yillarda O'zbekiston ko'plab xorijlik yoshlar ta'lim oladigan maskanga aylanib bormoqda. Davlat rahbari tashabbusi bilan oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi ham malakali va zamonaviy bilimga ega kadrlar tayyorlashda dunyoning rivojlangan davlatlari bilan xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirishdir.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida 2021-2022-o'quv yilidan boshlab xalqaro fakultet ochildi. Unga Rossiya Federatsiyasi, Hindiston, Pokiston, Janubiy Afrika, Nigeriya davlatlaridagi oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma dastur asosida 100 nafardan ziyod talaba o'qishga qabul qilindi.

— Bundan tashqari, institutda

AQSh, Turkiya, Afg'oniston, Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston davlatlaridan ham talabalar tahsil olmoqda. Ular uchun darslar MBBS yo'nalishida tashkil etilgan. Bu Hindiston, Pokiston va boshqa davlatlarda tan olinuvchi xalqaro e'tirof etilgan tibbiyot mutaxassisligi bo'lib, uni bitirgan talabalar shifokorlik kasbida faoliyat ko'rsatishlari mumkin, — deydi xalqaro fakulteti dekani Manzura Ashurova. — Institutimizda xorijlik talabalar to'lov kontrakt asosida o'qiydi. O'qish davomiyligi 4 yil. Shu davr ichida talabalarga tibbiyotning eng asosiy yo'nalishlari bo'yicha zarur bo'lgan zamonaviy va klinik fanlardan amaliy hamda nazariy mashg'ulotlar olib boriladi.

Professor-o'qituvchilarimizning 80 foizi mahalliy, 20 foizi chet ellik mutaxassislardir. Darslar ingliz tilida olib boriladi.

Xorijlik talabalar hayoti bilan tanishish maqsadida ular istiqomat qilayotgan turar joyda bo'ldik. Xonalar ikki kishiga mo'ljallangan, zamonaviy jihozlangan.

Quvonarlisi shundaki, xorijlik talabalar o'rtasida o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish yuqori. Ularning orasida o'zbekchani o'zlashtirishga erishganlari ham bor. — Men bu yurtni tinch va osuda,

— Men kollejni tamomlashim bilan xorijiy ta'lim muassasalari ichidan O'zbekistonni tanladim. Menga har jihatdan Farg'onadagi mazkur institut mos keldi. "Asl-Farm" Pokiston agentligi shart - nomasi orqali bu yerga keldim, — deydi 1-kurs talabasi Muhammad Islam.

— Sizing davlatingiz ta'lim jarayonining sifatli tashkil etilishiga alohida ahamiyat qaratadi. Bu haqda yuqori kursdagi hamyurtlarimdan eshitgandim. Qolaversa, menga nazariya va amaliyotning hamohangligi har tomonlama ma'qul bo'ldi. Shuning uchun bu yerda tahsil o'lyapman, — deydi 1-kurs talabasi hindistonlik Snega Ranganatxan.

— Ushbu institutni maktabda o'qib yurgan paytlarimdan bilar edim. Keyin ijtimoiy tarmoqlardan batafsil ma'lumot izladim, institut haqida ko'plab xorijliklar iliq fikrlar yozishgandi. Tanlovda adashmaganimni ilk kelgan kunlarimdanoq his qila boshlaganman, — deydi Pokistondan kelgan 2-kurs talabasi Ali Xan. — Bizga barcha sharoitlar yaratilgan. O'zbeklarning milliy taomlari menga juda manzur bo'ldi.



musaffo tabiatli yoshlar uchun barcha imkoniyatlar Vatani deb bilaman. Kuzatishlarim davomida yana shunga amin bo'lganmanki, bu yurtda yashashning gashti boshqacha. Ilmli insonlar ko'p va ularning qadri ham baland. Shuning uchun hozir aynan shu yerdaman, — deydi o'zbektilida ravon so'zlashishga harakat qilayotgan hindistonlik talaba Naveena Nagavajan. — Darsdan bo'sh vaqtimni asosan ta'lim muassasamizning kutubxona va sport kompleksida o'tkazaman. Bu imkoniyatlar uchun O'zbekistonni

tanlaganimdan afsuslanmayman. Xorijlik talabalar bilan suhbat davomida ularning ayrimlari Farg'onada qolib, ta'lim olishni keyingi bosqichda ham davom ettirish niyatida ekanini bildirishdi. Bundan ko'rinib turibdiki, bizdagi shart-sharoit va ta'lim sifati xorijlik yoshlarga ma'qul. Shuning barobarida, o'zaro hurmat va do'stona muhitda ta'lim olayotgan xorijlik talabalar O'zbekistonning xalqaro maydondagi imijiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

**Muattar MAHMUDOVA.**

# INSTITUT BINOSI – YANGI QIYOFADA



**Ochilish tadbirida viloyat hokimi Xayrullo Bozorov, Sog'liqni saqlash vaziri Behzod Musaev, respublikadagi tibbiyot oliygohlari rektorlari, talabalari va keng jamoat faollari ishtirok etishdi.**

Fransuzcha uslubda qurilib, ta'mirlangan binolarga 30 milliard so'm mablag' sarflandi. Qolaversa, moddiy-texnik bazasi ham shakllantirildi. Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti endi zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan 3 ta o'quv binosi, simulyatsiya markazi, vivariy, ilmiy laboratoriya, 500 o'rinli anjumanlar zali, 200 o'rinli oshxonaga ega bo'ldi.

Marosimda viloyat hokimi Xayrullo Bozorov va Sog'liqni saqlash vaziri Behzod Musayev so'z olib, institutda qisqa muddat ichida katta o'zgarishlar bo'lganligini e'tirof etdi. Ustozlarni bayram bilan tabriklab, tibbiyot oliygohi talabalari yaratib berilayotgan imkoniyatlardan o'z o'rni oqilona foydalanishlari, o'qib-izlanishlari, kelajakda yetuk tibbiyot sohasi vakillari bo'lishlariga tilak bildirdi. Shundan so'ng, o'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan institutning bir qator fidoyi ustozlariga "Sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni topshirildi.



**Talabalar festivali doirasida Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali talabalari ham ishtirok etishdi. —Biz bu yerdagi bunyodkorlik ishlaridan hayratdamiz, — deydi xorazmlik talaba Sharifbobo Xasanov. — Bunday sharoitda o'qish talabalar uchun baxt.**

# FIDOYI O'QITUVCHILAR TAQDIRLANDI

1-oktyabr — O'qituvchi va mu-rabbiylar kuni bayrami munosabati bilan Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, sohaga doir islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, o'quv-tarbiya jarayoniga milliy va ilg'or xorijiy tajribalar, innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ishlariga qo'shgan munosib hissasi uchun bir guruh mutaxassislar — institut "O'zbek tili va xorijiy tillar" kafedrası mudiri **Irodaxon Iminaxunova**, professorlar **Muhammadjon Qoraboyev** va **Yusibjon Nishanovlar** "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.



Institut hovlisida yangi barpo etilgan yashil maydonlar oliyogoh ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi. Bu hayrli ishga shaxsan rektor Akmal Sidikov tashabbus ko'rsatdi. Binolar atrofida ko'kalamzorlashtirish va landshaft dizayni yaratildi.

Buning uchun mahalliy sharoitga moslasha oladigan manzarali yaproq va archa turlari, magnoliya, manzarali butasimon o'simliklardan spireya, magoniya, shamshod, oddiy nastarin, hind nastarin kabi ko'chatlar ekildi.

## YANGI BINO VA O'QUV XONALARI



Sahifani I.ABDUJABBOROV va M.QODIROVlar tayyorladi.

## TALABALAR QASAMYOD QABUL QILDI

Shifokorlik — sharafli va ayni damda o'ta mas'uliyatli kasb. Bu zahmatli faoliyatga umrini baxshida etmoqchi bo'lgan yoshlar kelgusida nafaqat egnidagi oq libosi, balki qalbiga ham gard yuqtirmasliklari lozim.

Bemorlarga o'z jon-jigarlari, yaqinlaridek munosabatda bo'lish uchun esa, avvalo, pokiza niyat,

olijanob maqsad va qat'iy ahd zarur! Tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarining qasamyodi shunisi bilan ahamiyatli.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutni ochilish tadbirida institutning 1-bosqichiga qabul qilingan yigit-qizlar ishtirokida «Talabalikka bag'ishlov» tadbiri bo'lib o'tdi.



## DARAXT EKIB, BOG' YARATISH EZGULIK VA ULUG'VORLIK RAMZIDIR




Sog'liqni saqlash vaziri Behzod Musayev va viloyat hokimi Xayrullo Bozorov institut hovlisidagi maxsus belgilangan yashil hududda birgalikda daraxt ekdilar.

## SO`NGGI XABARLAR

## YANGI KITOB NASHR ETILDI

Kitob — bu bilim. Kitob insonni komillikka, yaxshilikka, insonni dunyo qarashini yuksalishiga, hayotni anglashga undaydi. Insonga kuch, beminnat bilim manbaini ko'rsatadi. Insonlar bilan munosabatni, madaniyatni va ma'rifatni o'rgatadi. Institut rektori, professor A. Sidikovning navbatdagi "Dermato-onkopatologiya" bo'yicha ingliz tilidagi kitobi nashr etildi.

Kitob A4 formatda, 360 sahifadan iborat. Batafsil klinik, dermatoskopik, morfologik va immunogistokimyoviy tavsiflari, 700 ta yuqori sifatli klinik rasmlar bilan boyitilgan formatda akademik nashr «Lambert» nashriyotida chop etildi. Kitob o'zgacha dizaynga ega. Sahifalar ko'rinishi, kreativ formatda ishlab chiqilgan. Ushbu kitob professor «Igor Nikolayevich Chuprov xotirasi»ga bag'ishlangan.



## VEB-KUTUBXONA

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Axborot resurs markazi kutubxonasi elektron shakldan yangi veb sayt ko'rinishiga keltirildi.

**Hurmatli talabalar!** Endi siz o'zingizga kerakli bo'lgan barcha turdagi kitoblarni ushbu institut veb saytidagi kutubxonadan yuklab olishingiz mumkin.

Veb kutubxonada o'zbek, rus, ingliz tilidagi tibbiyot kitoblari, video shakliga keltirilgan adabiyotlar, sohaga oid video konferensiyalar, xorijiy hamda respublika tibbiy jurnallari joylashtirilgan.

Shuningdek, yurtimizdagi hamda xorij davlatlaridagi muzeylarga virtual tarzda sayohat qilishingiz va ular haqida qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin.

**Veb-kutubxona bilan bilimingizni boyitib boring:**  
<http://e-library.fjsti.uz>



## "TASHABBUSKOR ISLOHOTCHI"

«Yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash maqsadida yoshlar o'rtasida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) miqyosida "Tashabbuskor islohotchi" tanlovi o'tkazildi. Mazkur xalqaro tanlovning taqdirlash marosimi tantanali tarzda Samarqand shahrida bo'lib o'tdi.

Institutimizning bir guruh talabalari "Tashabbuskor islohotchi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

**Биласизми?** 2022-2026-yillarga mo'ljallangan muhim ustuvorliklarni ijrosini ta'minlash, samarali ilmiy faoliyatda alohida o'rnatilgan fuqarolarni munosib taqdirlash maqsadida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi miqyosida tashkil etilgan «Tashabbuskor islohotchi»tanlovini o'tkazish belgilangan.



## UZMEDEXPO 2022: XALQARO TIBBIYOT KO'RGAZMASI TAASSUROTLARI

**Toshkentda O'zbekistonda "UZMEDEXPO-2022" xalqaro tibbiyot ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.**

Unda tibbiyot sohasida faoliyat olib borayotgan barcha muassasa xodimlari, oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti "Biotibbiyot muhandisligi" kafedrasida o'qituvchilari G.Ahmadaliyeva, N.Nosirovlar hamda "Biotibbiyot muhandisligi" yo'nalishi 4-kurs talabalari A.Madaminov, S.Xikmatshoyev, O.Xatamovlar ham faol ishtirok etib, katta taassurotlar bilan qaytdilar.

Mazkur tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad tibbiyot xodimlari va davolash muassasalariga bugungi kunda eng yuqori sifatga ega bo'lgan jihozlar, tibbiyot uskunalari, apparatlar hamda farmatsevtika mahsulotlarini namoyish etish, jahon tibbiyot xizmatlari tajribasini o'rganish, tibbiyot uskunalari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar o'rtasida xalqaro munosabatlarni o'rnatishdan iborat. Qayd etish joizki, ko'rgazma - yarmarkada 10 dan ortiq mamlakatdan

tibbiyot uskunalari savdosi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, shuningdek, yurtimiz firmalari va kompaniyalar ishtirok etishdi.

Jumladan, "Oquimed", firmasidan keltirilgan diagnostika, laboratoriya, tomografiya va rentgenografiya, reanimatsiya, fizioterapiya va boshqa ko'plab tibbiyot sohasiga oid bo'lgan qurilma va apparatlar ko'pchilikni e'tiborini tortdi. Eng asosiysi bu firma kerakli qurilma va jihozlar bilan ta'minlash bilan birga, xodimlarni o'qitish va kerakli ma'lumotlarni berishni maqsad qilishgan.

Shuningdek, Xitoyning "Mindrey" firmasi bilan hamkor tashkilot "INTERMED" ning turli hil zamonaviy tibbiyot apparatlarini va jihozlari bilan tanishdik. Hindiston vakili "Diamond Delux" firmasining jarroxlilik xonalari uchun ishlab chiqilgan jihozlari ham ko'rgazmada alohida o'rin egalladi. Ko'rgazmaning ishtirokchilari bilan suhbat



o'tkazildi, jihozlar haqida qiziqtirgan ma'lumotlarni oldik, hamkorlik uchun tashkilot rekvizitlarini almashildi.

"UZMEDEXPO-2022" bir necha yo'nalishni o'z ichiga olib, ular qatoridan tibbiyot uskunalari, farmatsevtika, tibbiy xizmatlar kabi sohalar o'rin olgan.

Ko'rgazmada tibbiyot uskunalari, farmatsevtika, tibbiy xizmatlar bo'yicha dunyoning ko'plab firma va kompaniyalari o'z mahsulotlari bilan qatnashdi. Ko'rgazmada ular uchun alohida seksiyalari tashkil etildi. Uch kunlik ko'rgazma tibbiyot uskunalari, farmatsevtika, tibbiy xizmatlar sohasidagi mutaxassislar uchrashuvi uchun ham ajoyib tadbirga aylandi.

Ko'rgazmaning ishtirokchilari kompaniyalari tomonidan tashrif buyuruvchilarga tibbiyot texnologiyalari sohasida eng yangi ishlanmalar namoyish etildi,

dolzarb xizmat va yechimlarning keng turlari taqdim qilindi.

"UZMEDEXPO 2022" ga tashrif buyurganlar mamlakatimizda va chet elda ishlab chiqarilgan tibbiyot gadgetlari yarmarkasidan ham bahramand bo'lishlari mumkin. Bu yarmarkada mahsulotlarni nafaqat ko'rib o'rganish, balki tibbiyot quurilmalarni sotib olish ham mumkin.

**Elyor VALITOV,**  
institut bosh mutaxassisi.

**JAMOAT SALOMATLIGI**

MUASSIS:  
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan 6-sentabr 2021-yil №12-132 raqam bilan ro'yxatga olingan.

BOSH MUHARRIR:  
**Akmal SIDIKOV**  
NASHR UCHUN MAS'UL  
**I.ABDUJABBOROV**

Qog'oz bichimi: A-3  
Oyda bir marta o'zbek tilida chop etiladi

TAHRIRIYAT MANZILI:  
150105, Farg'ona shahar,  
Yangi Turon ko'chasi, 2-uy  
Tel.: (73) 243-06-62  
(94) 444-91-76

[fmioz@mail.ru](mailto:fmioz@mail.ru) | [fjsti.uz](http://fjsti.uz)



GAZETA BEPUL TARQATILADI

Gazeta «ZAKOVAT NASHRIYOT UYI» MCHJ bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.

**BOSMAXONA MANZILI:**  
Kosonsoy shahri, Chorbog' ko'chasi, 17-uy.  
Bosmaxonaga 29.09.2022 yil, soat 16 00 da topshirildi. Topshirish vaqti: 17:00

Buyurtma:

Adadi: 1000